

MANG'ITLARNING SHAKLLANISHI VA SIYOSIY MAYDONGA KELISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mang'itlar urug'ining kelib chiqishi, ularning mo'g'ul davridan boshlab Oltin O'rda, No'g'ay ulusi, Xorazm va Movarounnahr siyosiy tizimlarida tutgan o'rni hamda Buxoro xonligida hokimiyat tepasiga kelish jarayoni tahlil etiladi. Maqolada XVIII asr boshlarida Ashtarxoniylar sulolasining zaiflashuvi va ichki siyosiy inqiroz Mang'itlar uchun hokimiyat sari yo'l ochgani, Xudoyor biy, Hakimbiy otaliq hamda Muhammad Rahim biylarning siyosiy faoliyati natijasida ular Buxoro xonligida etakchi kuchga aylangani ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Nodirshohning Eron ta'sirining kuchayishi va keyinchalik uning o'ldirilishi natijasida yuzaga kelgan siyosiy bo'shliqdan foydalanib, Muhammad Rahim 1756-yilda o'zini xon deb e'lon qilgani va Mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlanganligi ilmiy xulosalar bilan asoslanadi. Tadqiqot Mang'itlar tarixini mo'g'ul davridagi harbiy-siyosiy tuzilmalar bilan bog'lab o'rganadi va ularning Buxoro xonligi tarixidagi o'rni hamda Movarounnahr siyosiy jarayonlariga ko'rsatgan ta'sirini yoritadi.

Kalit so'zlar: Mang'itlar, Oltin O'rda, No'g'ay ulusi, Buxoro xonligi, Nodirshoh, Muhammad Rahimxon, siyosiy hokimiyat, Movarounnahr.

THE FORMATION AND ENTRY INTO THE POLITICAL ARENA OF THE MANGIDS

Annotation. This article analyzes the origin of the Mangid clan, their place in the political systems of the Golden Horde, Nogai ulus, Khorezm and Transoxiana since the Mongol period, and the process of their rise to power in the Bukhara Khanate. The article scientifically demonstrates that the weakening of the Ashtar Khanate dynasty and the internal political crisis at the beginning of the 18th century paved the way for the Mangids to rise to power, and that as a result of the political activities of Khudoyor biy, Hakimbiy otalik, and Muhammad Rahim biy, they became the leading force in the Bukhara Khanate. It also substantiates the scientific conclusions that Muhammad Rahim, taking advantage of the political vacuum created by the strengthening of Iranian influence of Nadir Shah and his subsequent assassination, declared himself khan in 1756 and the reign of the Mangid dynasty began. The study examines the history of the Mangids in connection with the military-political structures of the Mongol period and highlights their role in the history of the Bukhara Khanate and their influence on the political processes of Transoxiana.

Keywords: Mangids, Golden Horde, Nogai ulus, Bukhara Khanate, Nodir Shah, Muhammad Rakhimkhan, political power, Transoxiana.

ФОРМИРОВАНИЕ И ВЫХОД НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ АРЕНУ РОДА МАНГИДОВ

Аннотация. В статье анализируется происхождение рода Мангидов, его место в политической системе Золотой Орды, Ногайского улуса, Хорезма и Мавераннахра со времен монгольского владычества, а также процесс их прихода к власти в Бухарском ханстве. В статье научно доказано, что ослабление династии Аштарского ханства и внутривнутриполитический кризис начала XVIII века создали условия для прихода Мангидов к власти, и что в результате политической деятельности Худойёр-бия, Хакимбия оталика и Мухаммад-Рахим-бия они стали ведущей силой в Бухарском ханстве. Обосновываются научные выводы о том, что Мухаммад Рахим, воспользовавшись политическим вакуумом, образовавшимся в результате усиления иранского влияния Надир-шаха и его последующего убийства, в 1756 году провозгласил себя ханом, положив начало правлению династии Мангидов. В исследовании рассматривается история Мангидов в связи с военно-

политическими структурами монгольского периода, освещается их роль в истории Бухарского ханства и влияние на политические процессы Мавераннахра.

Ключевые слова: Мангиды, Золотая Орда, Ногайский улус, Бухарское ханство, Нодир-шах, Мухаммад Рахим-хан, политическая власть, Мавераннахр.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarining etnik shakllanishida Mang'it urug'i alohida o'rin tutadi. Ularning ildizlari mo'g'ullar davriga borib taqaladi, biroq asrlar davomida turklashuv, islomlashuv va siyosiy integratsiya jarayonlari natijasida ular o'zbek xalqining tarkibiy qismlaridan biriga aylangan. Mang'itlarning tarixiy yo'li mo'g'ul imperiyasi davridagi harbiy elita sifatidan tortib, XVIII asrda Buxoro amirligini boshqargan mustaqil sulolaga aylanishgacha bo'lgan uzoq siyosiy evolyutsiyani aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Mang'itlar urug'ining shakllanishi, ularning Oltin O'rda, No'g'ay ulusi hamda Buxoro xonligidagi siyosiy faoliyati — tarixshunoslikda nisbatan keng yoritilgan bo'lsa-da, mavjud ma'lumotlarning ayrim jihatlari chuqur tahlilni talab etadi. Bu davr yuzasidan bizda etarlicha yozma va og'zaki manbalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati voqealarni o'z zamonida guvoh bo'lgan mualliflar tomonidan qayd etilgan. Shu bois, ularni tanqidiy yondashuv asosida o'rganish ilmiy xolislikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sovet davri tarixshunosligi mafkuraviy ta'sir ostida shakllanganligi sababli, ko'plab asarlarda Mang'itlar faoliyati bir yoqlama baholangan. Shu sababli bu manbalar bugungi kunda qayta tahlil qilinishi zarur. Ayniy S., Razzoqov D.X., Herman Vamberi, Mirza Sirajiddin Hakim Buxoriy, Mirzo Somiy kabi mualliflar o'z asarlarida XVIII–XIX asrlarda Buxoro va Eron o'rtasidagi siyosiy aloqalar, shuningdek Hirot, Mashhad, Marv, Seraxs, Cho'rjo'y, Maymana, Kirmonshoh, Nishopur, Sabzavor kabi shaharlarning mintaqaviy jarayonlardagi o'rnini batafsil yoritganlar. Ularning asarlari mazkur davrning diplomatik, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini o'rganishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi.

1. Esdaliklar, qaydlar, esdaliklar.

2. Chor rossiyasi, sovet davri matbuoti materiallari va ushbu davrda olib borilgan tadqiqotlar.

3. Mustqailik yillarida yurtimizda va horijda chop etilgan tadqiqotlar.

Tadqiqot metodologiyasi (research methodology). Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

Tahlil va natijalar (analysis and results). Mang'itlar urug'ining kelib chiqish haqidagi afsonalarga ko'ra Mo'g'ullarining afsonaviy ajdodi Alankoaning avlodlaridan, Nirunlar safiga qo'shilgan Mang'itlarning ajdodlari – Alankoa avloddan nabirasi Tuminening to'qqiz o'g'lidan eng kattasi Jaksuning Nuyaktin, Urut va Mangkut degan uch o'g'lidan kelib chiqqan. Mang'itlar, Chingizxon davrida Tayjiyutlar bilan birga yashaganlar. Biroq Huyildar Sechen, uni ergashtirgan bir guruh Mang'it bilan birga Jamuhadan (Jamuka) ajralib, Chingizxonga qo'shildi.[1] Chingizxon ularni Anda deb atagan. U paytda Chingizxon bilan hamroh bo'lgan bu guruh janglarda eng oldinda turuvchi jangchilar sifatida tanilgan. Chingiz, Tayjiyutlarni engach, ularning yonidagi Mang'itlarning katta qismini shu erga joylashirdi, bir qismini esa Jodi No'yonga topshirdi.

Xubilayxon davrida Mang'itlar boshqaruvini Jodining nabirasi Manguday zimmasiga olgan. Ularning otasi Kutlug'shohning zamonida Mang'itlar bir tuman (hazara) tashkil etgan edilar. Chingizxon, Xitoyga yuborgan Mukalining qo'shini tarkibida boshqa qabilalar bilan birga 1000 kishilik Mang'it bo'linmasini ham bo'lgan. Chingizxondan so'ng barcha Mo'g'ul guruhlarining (ulus) tarkibida ma'lum miqdorda Mang'itlar bo'lgan, biroq ular asosan Oltin O'rdaxonligi doirasida, Jo'ji ulusi ichida kuchli ta'sirga ega bo'lganlar.

Mang'itlar Oltin O'rda hududida nafaqat Turklashib, Islomga kirish bilan qolmay, balki beylari orqali bu davlat tarixida muhim rol o'ynab kuch markaziga aylanishdi. Mang'it amirlari — Tuda Mengu (1280-1282), Tula Buga (1287-1291) va To'xta (1291-1313) — xonlar davrida Oltin O'rdadaxnlarni taxtga o'tkazish va tushirish darajasida kuchga erishdilar.

Amir No'g'ay 1299-yilda To'xtaxonga qarshi bo'lgan kurashda halok bo'lganidan so'ng, unga bog'liq qabilalar ba'zida No'g'ay, ba'zida Mang'it-No'g'ay ulusi deb atalgan. Rus

82 manbalarida "Nogay" deb yuritilgan guruh, Markaziy Osiyoda va Eronda Mang'it nomi bilan tanilgan. Bundan tashqari, Qrim va Usmonli manbalarida XVI-XVIII asrlarda Nogay so'zi uchraydi. Oltin O'rda ichida Mang'itlar asosan Itil (Etil) irmog'ining ikki tomonida va Orol dengizidan shahri Nogay armiyasining eng muhim markazi deb hisoblangan. Edige ehtimol shu erda dafn etilgan bo'lib, uning o'g'li Nuriddin ham o'z qabilasining muhim shaxslaridan bo'lgan. Shahar 1581-yilda Qozaqlar tomonidan vayron qilingan.

Edige faqat Mang'itlar emas, balki Oltin O'rda xonligi tarixida ham juda ta'sirli shaxs edi. Uning jasorati xalq orasida "Edige dostani" sifatida keng tarqalgan. Edige Oltin O'rdadagi taxt kurashlarida (1396-1411) faol ishtirok etgan va Timur Qutlug' O'g'lanni taxtga o'tkazishni qo'llab-quvvatlagan. To'xtamishga qarshi Timur bilan birga harakat qilgan Edige, so'ngra Shohrux zamonida bu sulola bilan yaxshi aloqalar o'rnatgan, Shohrux uning qiziga o'g'li Jo'qini unashtirishni istagan. Qozon xonligining Rossiya qo'liga o'tishi No'g'ay-Mang'itlarining ko'chish hududini qisqartirdi va bu hol qabilalar orasida yashash sharoitining og'irlashishiga sabab bo'ldi. Bunday boshlang'ich bezovtalik 1557-1558-yillardan boshlab No'g'aylar ikki bo'lakka bo'linishi bilan yakunlandi. No'g'ay ulusini tashkil etgan Shirin, Barin, Qipchoq, Argun, Alchin, Qiyat, Mang'it qabilalaridan birinchilari Qrim xonligi doirasiga kirib "Kichik No'g'ay ulusi" deb ataldi va Qrim xonligi tarixida ta'sirli bo'ldi. Itil daryosining sharqida qolgan katta guruh esa "Buyuk No'g'ay ulusi" deb yuritildi. [2]

Mang'itlardan katta bir qismi, Qalmoqlar tarafidan 1620-yilda surgun qilinmagunicha Volga va Emba oralig'ida yana yuz yil yashadi. Ularning katta bir qismi Shimoliy Kavkazga ko'chib, u erda faqat No'g'ay nomi bilan tanildi. Boshqa bir guruh esa Xiva xonligiga ko'chib, Amudaryo irmog'ida joylashdi. Mang'itlar va ularning ichidagi boshqa turk guruhlarining Xorazmga ko'chishi ehtimol Abulg'azi Bahadir xonning saltanatida (1642-1663) sodir bo'lgan. Xorazmda Mang'it qabilasi Qo'ng'irotlar bilan ta'sir almashish kurashiga kirishdi. Bu kurashda Xorazmdagi Mang'itlar Movorounnahrda o'z qabiladoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ba'zi muvaffaqiyatlardan so'ng 1740-larda Mang'itlar Qo'ng'irotlarga yutqazdi va Xorazmdagi siyosiy ta'sirini yo'qotdi. Biroq Movorounnahrda ta'sirlari uzoqroq davom etdi.[3]

Buxoro xonligida Mang'itlar ko'proq Zarafshon vodiysida joylashgan edilar. 1868-yilda Grebenkinning Qarshida to'plagan ma'lumotiga ko'ra, Mang'itlar o'z markazi sifatida Qarshini qabul qilganlar va soni taxminan 30 000 edi. Katta Qo'rg'ondagi mavjudlari esa 2000 nafar atrofida bo'lgan. 1923-yilda Movorounnahrda umumiy soni 100 000 edi. Buning 44 ming Buxoro yaqinida, 34 ming Qarshi hududida, o'n ming besh yuzi esa Xorazmda mavjud edi. Mang'itlar, Qozog' va O'zbek shaharalarida bu uluslarni tashkil etuvchi bey va urug'lar ichida qayd etilgan. [3]

XVIII asr boshidan boshlab yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy jarayonlar Mang'it beklarining Movorounnahrda hokimiyatini oshirdi. Ubaydulloxon (1702-1711) davridan boshlab Ashtarxonliklar hukmronligidagi Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz oydinlashib, qabila beklarining boshqaruvdagi ta'siri sezilarli darajada oshdi. Xonlikdan ketma – ket Farg'ona, Balx, Hisor, Termiz va Shahrisabz kabi shaharlar ajralib chiqdi va mamlakat hududlari ancha kamaydi. Shuningdek, savdo yo'llari xavf ostida qoldi, savdoning ahamiyati kamaydi. Ushbu davrda amirlar orasidagi kelishmovchiliklar yanada keskinlashdi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mulkdorlari bilan ko'chmanchi qabila beklari o'rtasidagi kurash muhim ahamiyat kasb etdi. Yashovchi mulkdorlar uchun tartib va osoyishtalik muhim edi, shuning uchun ular markaziy hokimiyatning kuchayishiga va ko'chmanchi qabila beklarining ta'sirining kamayishiga harakat qilishdi. Ularning bu siyosati ko'chmanchi qabila beklarini bezovta qildi va xonni nazorat qilish uchun eng yuqori davlat lavozimlarini egallashga intildilar. O'zbek amirlari orasidagi kurashda eng kuchli bo'lgan Yuz qabilasi chiqdi va Subhon Qulixondan (1681-1702) keyin taxtga o'tgan eng katta o'g'li Ubaydullon (1702-1711) qo'llovchisi bo'ldi. Ushbu qo'llab-quvvatlashni ortiga olgan Ubaydulloxon, amirlar bilan kurashda ba'zilarini yo'q qila oldi, ba'zilariga esa ulamolar va harbiy sinf bilan birga sovg'alar va mansablar berib, ularni o'ziga avrardi.[4] 1747-yilda Mang'itlarni hokimiyatga olib kelgan Muhammad Rahim Xonning bobosi va ilgari Shahrisabz hukmdori bo'lgan Xudoyorbiy parvonachi darajasini olgan birinchi

Mang'itdir. Ubaydulloning markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun qilgan urinishlariga qaramay, uning boshqaruvining ilk yillarida xonlik yana ikki qismga bo'linishiga va Muqimxonning Balxda muxtor boshqaruv tashkil qilishiga to'sqinlik qila olmadi. Muqimxon Ubaydulloni nomida xon sifatida tan olgan. Biroq, Muqimxon sodiqligi bir muddatdan so'ng tugab, u isyon qilib taxtga da'vo qilgan. Shundan so'ng, Ubaydulloxon (1702–1703) yilda qurultoy chaqirib, Balxga qarshi yurish qarorini qabul qildi. Ammo ba'zi o'zbek amirlari ushbu yurishga turli bahonalar bilan qatnashmay qolganligi sababli Balx yurishi amalga oshmadi. Ubaydulloxon 1703-yilda Shahrisabz hukmdoriga, 1705-yilda esa Samarqand hukmdoriga qarshi tashkillashtirgan yurishlari muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Ushbu safarlarning yonida Ubaydullahxon, ataligi Muhammed Rahimbiy Yuz qabilasiga mansub shaxs, shaxsiy manfaatlari yo'lida Hisar shahriga falokat bilan tugagan bir yurish tashkil ettirgan edi. Hisor shahrida yashovchi Yuz qabilasi bilan ixtilofga tushgan xon ataligi ularni kuch yo'li bilan o'z ta'siri ostiga olmoqchi bo'lgan, ammo shaharda qilgan amallari xalqni to'liq o'zidan ham markaziy hukumatdan ham uzoqlashtirishga olib kelgan. Zaxira markazdan ancha uzoqda joylashgan va markazga nisbatan bog'lanishi zaif bo'lgan Hisor shahri shu tariqa mustaqilroq bir mavqe egallagan. Boshqa bir yurish esa Termiz shahriga qarshi tashkil etilgan va unda ham muvaffaqiyatga erishilmagan. Ushbu yurishning sababi xon ataligining yoshartirilishi bilan bog'liq – Termiz hukmdori Sherhali Qo'ng'iro't lavozimdan olinib, uning o'rniga Ne'matulloh To'qsaba Nayman tayinlangan. Ammo shaharda ko'p sonli bo'lgan Qo'ng'iro't qabilasi bu tayinlanishni qabul qilmay, isyon ko'tarishgan. Termiz aholisi isyon qilgach, Sherhali talabiga binoan xon otalig'i Mahmudbiy Qatag'on ham bu harakatga qo'llab-quvvatlash bergan va vaziyat yanada murakkablashgan. Shu sababli Buxoro xoni Ne'matulloh To'qsaba ustiga uch marta harbiy yurish amalga oshirgan, lekin uch yurish ham muvaffaqiyatli bo'lmagan. [5] Buning ortidan xon isyonni qo'llab-quvvatlagan valiahd Muqimxonni jazolash yo'li orqali masalani hal etish mumkinligini anglab, Ubaydulloxon Balx shahriga yurish qilishga qaror qilgan; ammo Qarshi shahriga etib borgach, amirlar tomonidan yurishdan voz kechib, aksincha isyonchi Termiz va Shahrisabz shaharlarini nishonga olish maqsadga muvofiq degan maslahat olgan. Bu tavsiyaga quloq solgan Buxoro xoni Termizga, Sherhali ustiga yangi bir qo'shin yuborgan. Ammo amirlari xohishsiz muomala qilganligi sababli, bu yurish ham muvaffaqiyatsiz yakunlangan. Nihoyat xon Buxoroga qaytib kelishga majbur bo'lgan. Balx muammosi faqat Muhammad Muqimxonning vafot etishi bilan hal etilgan. Uning o'limi ortidan 1707-yilda Ubaydullaxon o'z armiyasini jamlab, shahar ustiga yurib, shaharning barcha darvozalari bilan qamal qilgan. Bu uzun qamal natijasida Buxoro xoni Balx shahrini egallagan va urushda unga yordam bergan amirlarni bu erda turli yuqori lavozimlarga tayinlagan. Ubaydullaxon davrida amirlarni itoatga keltirish maqsadida olib borilgan uzoq davom etgan urushlar, davlat erlarining xizmat evaziga katta qismi tarqatilib, eng muhim daromad manbaidan mahrum bo'lishi, shuningdek behuda va ortiqcha xarajatlar davlat xonligini moliyaviy jihatdan vayron qilgan. Shu bois davlat boylardan qarz olgan va qarz bilan boshlangan muammoni qarz bilan yopish yo'liga borilgan. Biroq xarajatlar qisqarish o'rniga yana ko'paygan va natijada muvozanat butunlay buzilgan. [6] Davlat xodimlari xalqni isyon qilmasligi uchun soliqlarni oshirish yo'lini tanlamaganlar, uning o'rniga 1708-yilda pulning qadri bilan o'ynash orqali moliyaviy ahvolni tiklashga urinib ko'rganlar. Ammo bu amaliyot savdogar qatlamni mamnun va boy qilsa-da, xalqni yana ham kambag'al qilgan va kutilgan natijaga erisha olmagan. 1709-yilda esa Samarqandda yuz bergan voqealar xonlikda yangi muammolarni yuzaga chiqargan. Samarqand shahrida Nayman, Qo'ng'iro't va Saray qabilalari o'rtasidagi raqobat hamda shaharga qarshi quyilgan Qalmoqlar hujum ehtimoli Buxoro xonini xavotirga solgan va uni avvalo akasi Abulfayzni nazorat ostida ushlab turish kabi bir qator choralarni ko'rishga majbur qilgan. Bu to'qnashuvlar poytaxt Buxoroga ham tarqalganida, Mang'it amiri Xudoyorbiy Buxoro muhofazasiga mas'ul etilgan. Ammo barcha bu chora-tadbirlar foyda bermagan; rivojlangan voqealar Ubaydullaxonning oxirini tayyorlagan va Buxoro xoni 1711-yil 18-martda taxtdan tushirilgan hamda uning o'rniga Abulfayzxon (1711-1747) taxtga o'tirgan. [4]

Uzoq yillardan beri Turkiston hududini qiziqish bilan kuzatayotgan Eron hukmdori Nodirshoh harakatga o'tgan va nihoyat xonlikni o'z gegemonligini o'rnatishga uringan. XVIII

asrning ilk choragida Eron ham, Turkiston kabi, chuqur siyosiy beqarorlikni boshdan kechirayotgan edi: Eron shohligi Saltan Hasayn (1694-1722) davrida Sharqdagi sunniy Afg'onlarni shiaga aylantirish siyosatini olib borgani og'ir oqibatlar tug'dirgan va Afg'onlar 1722-yilda poytaxt Isfahonni egallab, uni talon-tosh qilganlar. Nodirshoh Afshor qabilasidan bo'lib, 1726-yilda Eron shohi Tahmasp II (1722-1732) xizmati ostida xizmat boshlagan, qisqa muddat ichida porlab chiqqan va manbalarda Tahmaspqulixon nomi bilan ham tilga olingan. U davrda davlat boshqaruvida eng xavfli raqibi — Fathalixon Qojarni chetlatgan, Afg'onlar itoatiga tushirilgan, shuningdek Usmonlilar ustida muhim g'alabalar qozongan. 7 sentyabr 1732 da Tahmasp II ni taxtdan ag'darib, uning o'g'li Abbos III ni shoh deb e'lon qilgan, ammo barcha vakolatlar o'zida qolgan. Nihoyat Ozarbayjonning Mugan vodiysida to'plangan qurultoyda turk va mo'g'ol an'analari muvofiq qaror qabul qilingan va 8 mart 1736 da Nodirshoh shoh unvonini egallagan Nodirshoh qisqa vaqt ichida mamlakat ichida tinchlikni ta'minlagach, yo'lini Hindistonga, Boburiylar davlatiga, boshladi. 1739-yil fevralida Karnal urushida g'alaba qozonib Dehli yaqiniga qadar yurdi va Boburiylar davlatini itoatga keltirishga muvaffaq bo'ldi. Hindiston yurishidan so'ng esa uning navbatdagi maqsadi — Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklarini egallashga qaratildi. Nodirshoh bir muddat Turkistonda bo'lib o'tgan voqealarni sinchiklab kuzatgan va hududga aralashish uchun mos vaqtni kutayotgan edi. Turkistonga yurishni amalga oshirish uchun qo'lida etarlicha ma'lumotlarga ega bo'lgan. Chunki 1728-1740 turkman qabilalaridan ham yordam olgan holda tez-tez Xurosonga hujumlar uyushtirgan va har safar son-sanoqsiz asirlar va g'animat bilan qaytadigan edi. Bundan tashqari, ijodiy manbalarga ko'ra, Abulfayzxondan mamnun bo'lmagan Hakimbiy otaliq bir muddatdan buyon Nodirshohni xonlikni bosib olishi uchun taklif qilib kelgan, ma'lumotlarda Hakimbiy otaliq Nodirshohning bosqinni xursandlik bilan qarshi olganligi qayd etilgan. Shu sababli Mang'it amiri Nodirshohni rejalari uchun qulay imkoniyat deb bilgan. Nodirshoh Hindiston yurishi chog'ida Balx viloyatida o'g'li Rizoquli Mirzoni kuzatuv vazifasiga jo'natgan va hududni tayyorlab qo'yishni buyurgan. Ammo o'g'li Amudaryo shimoliga o'tmaslik bo'yicha qat'iy ko'rsatma olgan bo'lsa-da, 1736–1737 yillarda Rizoquli Mirzo Balx hududidagi o'zbek qabilalarini itoatga olgan va shu tariqa Shimoliy Afg'onistondagi Ashtarxoni boshqaruviga barham bergan. Ammo buyrug'ini bajarmagan Mirzo Amudaryoni kesib o'tib, Qarshi shahrini qamal qilishga qaror qilgan. Bu haqida ma'lumot olgan shaharning hokimi Doniyolbiy vaziyatni Buxoroga xabar qilgan. Hakimbiy otaliq zudlik bilan harakatga tushgan, safar yo'lida Samarqand hukmdori Odinaqulbiy 6 000 askar bilan, Miyonqoldan G'aybullabiy esa Yetti urug' bilan unga qo'shilgan. Katta qo'shin bilan harakat qilgan Otaliq, Rizoquli Mirzodan avval shaharga etib borgani va mudofaaga tayyorgarlik ko'rgani qayd etilgan. Ikkala tomon qarama-qarshi tushgan, ammo zamonaviy qurollar va tartibli bo'lgan Eron armiyasi Buxoro qo'shinini mag'lub qilgan. Shundan so'ng Hakimbiy otaliq Abulfayzxondan qo'shimcha kuch so'ragan. Buxoro xoni Abulfayzxon Andijon, Xo'jand, Samarqand va Toshkent kabi shaharlar bilan, shuningdek Qoraqalpoq va Qozoqlardan askarlar to'plab otalig'ining yordamini olgan, shuningdek Xiva xoni Elbarsxonni ham Eron armiyasiga qarshi Turkistonni himoya qilishga chaqirgan. Harbiy to'qnashuvda Ikkala tomon ham katta yo'qotishlarga uchrangan. Shu paytda darvozasi bilan 60 000 kishilik qo'shin bilan Buxoroga kelgan Xiva xoni Elbarsxon shaharda Abulfayzxonning yo'qligini bilib chiqadi, qal'ani egallaydi. Ammo xon mutlaq mag'lub bo'lmasligi sababli Buxoroni tark etib, Xivaga qaytadi. Shu orada, o'g'lini diqqat bilan kuzatayotgan Nodirshoh, uning muvaffaqiyatsizlik ehtimoli aniqlangach, unga darhol qaytib kelishini buyuradi; shuningdek Buxoro xoni Abulfayzga ham bir maktub jo'natib, o'g'lini roziligi bo'lmagan holda harakat qilgani, o'zlari bilan hech qanday muammosi yo'qligini, do'stlik munosabatini istashini bildiradi. Hindiston yurishi undan so'ng Peshovarga kelgan Nodirshoh, shu erda Buxoro xonidan bir maktub oladi. Maktubda Abulfayzxon, qadimdan shon-sharaflilardan bo'lgan shaharning so'nggi vakili ekanligini, o'zi kabi bir hukmdor bilan yuzma-yuz turishga kuchi yo'qligini, ammo agar uni ziyorat qilib sharaflantirsalar, mehmon qilishdan buyuk sharaf sezishini shahga etkazadi. Bu maktubdan xursand bo'lgan Nodirshoh, u bilan hech qanday davlatida yoki xazinasida nazariy tilagan narsa yo'qligini, lekin Xiva xoni Elbarsxonni jazolash zarurligini javob maktubida xonga etkazadi. Tayyorliklarini tugatgan Nodirshoh 1739-yil boshida

Turkistonni bosib olish uchun Balx tarafdan yurishga chiqadi. Keyin Chorjo'y shahriga etib, u erda Buxoro xonining elchisi sifatida Hakim Biy otaliqni qabul qiladi va xonni Qorako'lda (somoniy mahallada) kutib olayotgani haqida xabar topadi. Ammo Hakimbiy Buxoroga qaytganida vaziyat o'zgarganligini va asosan Yuz, Min, Nayman, Qo'ng'iro't, Kenagas, Qiyot, Bayot, Chig'atoy va Qozoqlar kabi qabilalar rahbarlari Abulfayzni ishontirib, Nodirshohga itoat etmaslik, qarshilik ko'rsatish tarafida ekani aniqlanadi. Shu guruhga qarshi chiqishiga, hech qanday foydasi bo'lmasligini bildirishiga qaramay, xon harbiy harakatga kirishishga qaror qilgan. Zarafshon daryosi bo'yida bo'lib o'tgan jangda og'ir mag'lubiyatga uchragan Abulfayzxon, bu safar otalig'i so'zini tinglab, Nodirshohga elchi yuborib, bog'liqligini bildirgan. Nodirshoh huzurida sayyidlar, ulamolar, din arboblari va shahar etakchilari bilan birga kelishuvga kelinishiga ruxsat bergan. Shartnomaga ko'ra Amudaryo ikki davlat orasida chegaraviy daryo sifatida qabul qilingan, daryoning janubidagi hududlar Eron ixtiyoriga o'tgan. Nodirshoh esa Abulfayzxonning qizlaridan birini qizi sifatida o'ziga olgan, bu orqali Chingizxonni naslidan bo'lgan avlod bilan nikoh orqali aloqaga kirgan. Turkistonning fosh qilinishining ramzi sifatida xutba o'z nomiga o'qitilgan va tanga zarb qilingan. Abulfayzxonga shoh unvoni berilgan, Hakimbiyga esa "otaliq" unvonini hamda "Amiri kabir" lavozimi ham nasib qilgan.[7] Keyinchalik Buxoro xonligidagi qabilalardan katta-kichik ko'plab odamlarni Miroxur Rahimquli rahbarligida va Hakim Biy otaliqning o'g'li Muhammad Rahim etakchiligida Mashhadga ko'chirilgan. Buxoro xonligining itoatga olinishi tugagach, Xiva xonligiga qarshi yurishga kirishgan Eron shohi 1740 yil oxirida mamlakatiga qaytgan. 1743 yilda Hakim Biy otaliqning vafoti xonlikdagi siyosiy muvozanatni o'zgartirgan va siyosiy parokandalik uchun zamin yaratgan. Kenagas qabilasi bilan Xitoy qabilasi isyon ko'targan va Samarqand, Miyonqol hamda Qarshi va Buxoro atrofini bosqin qilganlar. Isyonni bostirish uchun Abulfayzxon avvalo Divmashdi biy qo'mondonligida 15 000 kishilik qo'shin, keyin Muhammad Amin Naqib va Xudayquli qo'shbegi boshchiligida 20 000 kishilik boshqa qo'shinni asirlar ustiga yuborgan, ammo aniq natija ololmagan. Keyin Buxoro xoni Nodirshohga Xitoy qabilasi rahbari Ibodullabiy Buxoroga juda yaqin kelganini xabar qilgan va zudlik bilan yordam so'ragan. Nodir Shah Abulfayzga avvalo Hasanxon Bayat va Behbudxon Jindavul boshchiligida 12 000 kishilik qo'shin yuborgan, ortidan esa O'taliq o'g'li Muhammad Rahimni boshqa bir qo'shin bilan Buxoroga jo'natgan 1747-yil Turkiston tarixi uchun burilish nuqtasi bo'ladi. Chunki shu yili Nodirshoh Alixon tomonidan uyushtirilgan suiqaqd natijasida o'ldirilgan. Shunday qilib ko'plab joylar kabi Buxoro xonligi ham Eron ta'siridan qutulgan. Uzoq vaqt xonlikni qo'lga kiritmoqchi bo'lgan Muhammad Rahim otaliq, Nodirshoh vafotini eshitib darhol harakatga tushib, Abulfayzxonni hibsga olishga buyruq bergan. Hasanxon bilan Behbudxon vazifani muvaffaqiyatli bajargan holda Buxoroga qaytgan. hukmdorlarining o'ldirilganini bilmagan Eronlik qo'mondonlar Nodirshohning qaynatasi bo'lgan Abulfayzxon hibsga olinganini bilib Muhammad Rahimxonga xabar yuborganlar: "Xonni ozod qil, aks holda qal'ani egallaymiz" deganlar. Shunda Muhammad Rahim ularga shunday javob yuborgan: "O'zlaringizga kelinglar va tinchgina o'z yurtlaringizga qaytinglar. Aqlsizlikka yo'l qo'ymanglar. Muhammad Rahimxonni xonlik huquqi yo'q deb aytayotgan bo'lsangiz, o'ylang! Nodirshoh ko'plab shohlarni taxtidan ag'dargan." Ushbu paytda qo'shinlarning irodasiga so'zsiz singdirish uchun ularga ko'plab sovg'alar yuborilgan; shuningdek, Eron armiyasi tarkibidagi Afg'onlar hibsga olinishlari yoki kamsitilib yurishi natijasida Muhammad Rahimxon o'z safiga avrab olinishga muvaffaq bo'lgan. Muhammad Rahim 1747 yil 26 iyun kechasi Abulfayzxonni qatl ettirgan. Keyingi kuni xon qatl qilingani va Afg'onlarning safdan chiqib ketgani xabar topilgach, Eron armiyasi Buxorodan chiqib ketgan. Shu tariqa Muhammad Rahim Eron armiyasi tomonidan o'ziga qarshi yaratilishi mumkin bo'lgan xavfni bartaraf qilgan. Keyinchalik u Abdulmo'min va Ubaydullahni ketma-ket xonlik taxtiga o'tqazgan, ammo ular nomigagina hukmdor bo'lishgan. Nihoyat, Muhammad Rahimxon 1756-yilda o'zini hukmdor deb e'lon qilgan.[8]

Xulosa. Mang'itlar urug'i Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan siyosiy va harbiy kuchlardan biridir. Ularning ildizlari mo'g'ullar davriga borib taqaladi, ammo ular keyinchalik turklashib, Islom dinini qabul qilib, Oltin O'rda davlati tarkibida katta ta'sir kuchiga ega bo'ldilar. Edige biy va uning avlodlari bu urug'ning siyosiy mavqeini mustahkamlab, Oltin O'rda va

- 86 No'g'ay ulusining muhim rahbarlariga aylanishdi. XVII–XVIII asrlarga kelib, Mang'itlar Movarounnahr va Xorazm hududlariga kirib kelib, bu erlarda siyosiy hayotda faol ishtirok eta boshladilar. Ashtarxoniylar davrida davlatdagi inqiroz, ichki nizolar va iqtisodiy tanazzul Mang'itlar uchun hokimiyatga chiqish imkonini yaratdi. Xudoyor biy, Hakimbiy otaliq va Muhammad Rahim biylarning siyosiy faoliyati natijasida Mang'itlar asta-sekin Buxoro siyosiy hayotining bosh ishtirokchisiga aylandilar. Nihoyat, Nodirshohning o'limidan so'ng yuzaga kelgan siyosiy bo'shliqdan foydalanib, Muhammad Rahim 1756-yilda Buxoro taxtini egalladi va Mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlandi. Shunday qilib, Mang'itlar tarixi — bu mo'g'ul davridan boshlangan, Oltin O'rda va No'g'ay uluslari orqali o'tib, nihoyat Buxoro xonligi taxtida yakun topgan uzoq va murakkab siyosiy yo'ldir. Ular o'z davrining siyosiy jarayonlarini faol boshqargan, Movarounnahrda markazlashgan hokimiyatni tiklagan va O'rta Osiyo tarixida mustahkam iz qoldirgan sulola sifatida tarixda o'chmas nom qoldirdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. AHMET TEMÎR. Moğollarin gîzli tarihi. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basımevi, 1986.
2. Бартолд.В.В. Соч. -Т.II.-Ч.1. - Москва,1963
3. ALPARGU, Mehmet (2002), "Türkistan Hanlıkları", Türkler, c: VIII, Yeni Türkiye Yayınları, Ankara, ss. 557–605
4. BREGEL Yuri (2000), The Administration of Bukhara Under the Manghīts and Some Tashkent Manuscripts, Indiana University, Research Institute for Inner Asia Studies, Bloomington
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI - начало XIX в.). М., 1958
6. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI - первой половине XIX вв. Т.1. Ташкент, 1966 [глава 2]
7. Мир Мухаммад Амин Бухари. Убайдуллонаме. /Пер. с таджикского, с прим. член-корр., профессора А.А.Семенова. – Ташкент: Изд-во АН Узб.ССР,1957.
8. Ражабов Қ . Мухаммад Раҳимхон манғитлар сулоласи асосчиси // Бухоро мавжлари , 2005.